

“O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashi majlisining

7 -2024-son

BAYONI

Toshkent shahri,
Amir Temur shoh ko‘chasi, 13

2024-yil “11” iyun
18.00

Bayon 2024-yil “ ” kuni rasmiylashtirildi.

Qatnashganlar:

Raislik qiluvchi: Jumanazarov A.R. - “O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashi raisi.

Kuzatuv kengashi a‘zolari: Z.Z.Saidov, F.K.Raxmatov, M.B.Atadjanov, Bo Inge Andersson, Sharik Vali Xan, Andreas Edinger.

Taklif etilganlar: U.U.Rozukulov, A.V.Rafiqov, A.Q.Shukurov, F.R.Turayev, D.A.Xidoyatov, A.A.Saxapov, R.A.Bikkulov.

Boshqarma boshliqlari (ro‘yxat bo‘yicha).

Majlis kvorumi - 100%.

KUN TARTIBI:

1. Boshqaruv raisi birinchi o‘rinbosarining “Mahalliyalashtirish va import o‘rnini bosish” masalalari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-avgustdagi PQ-4426-son qarori ijrosi to‘g‘risidagi 2023-yil yakuni bo‘yicha hisobotlarini ko‘rib chiqish.

2. Transformatsiya va moliya masalalari bo‘yicha boshqaruv raisi birinchi o‘rinbosarining 2023-yil yakuni bo‘yicha transformatsiya masalalari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi PF-101-son Farmoni ijrosi to‘g‘risidagi hisobotini ko‘rib chiqish.

3. “O‘zavtosanoat” AJ xaridlarining 2023-yil yakuni bo‘yicha reja-jadvallarini, shuningdek, import qilish rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari bo‘yicha hisobotni ko‘rib chiqish.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-yanvardagi “Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2733-son qaroriga binoan “O‘zavtosanoat” AJ faoliyatida qonun ustuvorligi va qonunchilikni ta‘minlash holatlari to‘g‘risidagi yuridik boshqarmaning hisobotini tinglash.

5. Ichki audit xizmatining 2023-yil 4-choragi yakuni bo‘yicha hisobotini ko‘rib chiqish.

6. 2024-yil yakuni bo‘yicha yagona aksiyadorning qarori qabul qilingungacha bo‘lgan davrda “O‘zavtosanoat” AJ joriy xo‘jalik faoliyati jarayonida affillangan shaxslar bilan tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimlar ro‘yxatini ma‘qullash.

7. “O‘zavtosanoat” AJ boshqaruv a‘zolarini qayta saylash va vakolatlarini uzaytirish masalasini oldindan ko‘rib chiqish.

8. “O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashi yig‘ilishining 2023-yil 30-noyabrdagi 17-2023-son bayonidagi qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida.

9. “O‘zavtosanoat” AJning ayrim ichki hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida.

10. “O‘zavtosanoat” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash natijalari to‘g‘risida.

(Jumanazarov, Rafiqov, Shukurov, Bikkulov, Rustamov, Gafarov, Kadirov, Karimov, Saidov, Raxmatov, Atadjanov, Andersson, Xan, Edinger)

Kun tartibi bir ovozdan qabul qilindi.

I. Kun tartibidagi birinchi masala bo‘yicha:

Kun tartibidagi **birinchi masala** bo‘yicha “O‘zavtosanoat” AJ Mahalliyashtirish, kooperatsiya aloqalarini sanoatda kengaytirish va axborot texnologiyalari masalalari bo‘yicha boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari A.V.Rafiqov tinglandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-avgustdagi “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish bo‘yicha mas‘uliyatini yanada oshirish to‘g‘risida”gi PQ-4426-son Qarori va Kompaniyaning 2019-yil 27-avgustdagi 09-135-son buyrug‘i ijrosini ta‘minlash uchun Kuzatuv kengashi a‘zolariga boshqaruv raisi birinchi o‘rinbosarining korxonalarda 2023-yilda amalga oshirilgan ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish masalalari yuzasidan hisoboti taqdim etildi (1-ilova).

Ovozga qo‘yildi:

1.1. Boshqaruv raisi birinchi o‘rinbosari A.V.Rafiqovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-avgustdagi “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish bo‘yicha mas‘uliyatini yanada oshirish to‘g‘risida”gi PQ-4426-son Qarorining ijrosi yuzasidan hisobotini ma‘lumot uchun qabul qilish va tasdiqlash (1-ilova).

1.2. “O‘zavtosanoat” AJ korxonalarida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish masalalari bo‘yicha olib borilayotgan choralarning natijasi va erishilgan faoliyatning muhim ko‘rsatkichlarini inobatga olgan holda boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari A.V. Rafiqovning 2023-yildagi ish faoliyatini “qoniqarli” deb topish.

Ovoz berish natijalari:

1.1. “Rozi” - 100% ovoz, “Qarshi” - yo‘q, “Betaraf” - yo‘q.

1.2. “Rozi” - 100% ovoz, “Qarshi” - yo‘q, “Betaraf” - yo‘q.

Kun tartibidagi birinchi masala bo‘yicha Kuzatuv kengashi qaror qiladi:

1.1. Boshqaruv raisi birinchi o‘rinbosari A.V.Rafiqovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-avgustdagi “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish bo‘yicha mas‘uliyatini yanada oshirish to‘g‘risida”gi PQ-4426-son Qarorining ijrosi yuzasidan hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin va tasdiqlansin (1-ilova).

1.2. “O‘zavtosanoat” AJ korxonalarida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish masalalari bo‘yicha olib borilayotgan choralarning

natijasi va erishilgan faoliyatning muhim ko'rsatkichlarini inobatga olgan holda boshqaruv raisi birinchi o'rinbosari A.V.Rafiqovning 2023-yildagi ish faoliyati "qoniqarli" deb topilsin.

II. Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha:

Kun tartibidagi **ikkinchi masala** bo'yicha, "O'zavtosanoat" AJ boshqaruv raisining transformatsiya va moliya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.K.Shukurovga so'z berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi PF-101-son Farmonda (keyingi matnda – Farmon) belgilangan vazifalar ijrosini o'z vaqtida va sifatli bajarishni ta'minlash bo'yicha "O'zavtosanoat" AJ tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi hamda uni bajarish to'g'risida 2023-yil yakuni bo'yicha hisoboti tinglandi (2-ilova).

Ovozga qo'yildi:

2.1. 2023-yilning yakuni bo'yicha boshqaruv raisining transformatsiya va moliya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.K.Shukurovning Farmonda belgilangan vazifalar hisobotini ma'lumot uchun qabul qilish va tasdiqlash (2-ilova).

2.2. 2023-yilning yakuni bo'yicha boshqaruv raisining transformatsiya va moliya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.K.Shukurovning transformatsiya masalalari bo'yicha faoliyatini "qoniqarli" deb topish.

Ovoz berish natijalari:

2.1. "Rozi" - 100% ovoz, "Qarshi" - yo'q, "Betaraf" - yo'q.

2.2. "Rozi" - 100% ovoz, "Qarshi" - yo'q, "Betaraf" - yo'q.

Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha Kuzatuv kengashi qaror qiladi:

2.1. 2023-yilning yakuni bo'yicha boshqaruv raisining transformatsiya va moliya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.K.Shukurovning Farmonda belgilangan vazifalar hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin va tasdiqlansin (2-ilova).

2.2. 2023-yilning yakuni bo'yicha boshqaruv raisining transformatsiya va moliya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A.K.Shukurovning transformatsiya masalalari bo'yicha faoliyati "qoniqarli" deb topilsin.

III. Kun tartibidagi uchinchi masala bo'yicha:

Kun tartibidagi **uchinchi masala** bo'yicha Xaridlar transformatsiyasi ofisi boshlig'i A.Rustamov tinglandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyuldagi "Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5171-son qaroriga muvofiq 2023-yil davomida amalga oshirilgan xaridlar bo'yicha hisobot taqdim etildi (3-ilova).

"O'zavtosanoat" AJ tomonidan 2023-yil uchun import qilinishi rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxati "O'zavtosanoat" AJ Kuzatuv kengashi tomonidan

2022-yil 30-noyabrdagi yig'ilishining 22-2022-son bayon qarori (4-ilova) bilan tasdiqlangan.

Ovozga qo'yildi:

3. "O'zavtosanoat" AJ tomonidan 2023-yil davomida amalga oshirilgan xaridlar bo'yicha hisobotni ma'lumot uchun qabul qilish va tasdiqlash (3-ilova) hamda 2023-yilda rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni "qoniqarli" deb topish.

Ovoz berish natijalari:

3. "Rozi" - 100% ovoz, "Qarshi" - yo'q, "Betaraf" - yo'q.

Kun tartibidagi uchinchi masala bo'yicha Kuzatuv kengashi qaror qiladi:

3. "O'zavtosanoat" AJ tomonidan 2023-yil davomida amalga oshirilgan xaridlar bo'yicha hisobotni ma'lumot uchun qabul qilinsin va tasdiqlansin (3-ilova) hamda 2023-yilda rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) xaridlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar "qoniqarli" deb topilsin.

IV. Kun tartibidagi to'rtinchi masala bo'yicha:

Kun tartibidagi **to'rtinchi masala** bo'yicha "O'zavtosanoat" AJ yuridik boshqarmasi boshlig'i S.I.Gafarov 2017-yil 19-yanvaridagi "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2733-sonli qaroriga binoan tayyorlangan Kompaniya faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylik ta'minlanishi ahvoli to'g'risidagi hisoboti bilan Kuzatuv kengash a'zolarini tanishtirdi (5-ilova).

Ovozga qo'yildi:

4. "O'zavtosanoat" AJ yuridik boshqarmasining Kompaniya faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylik ta'minlanishi ahvoli to'g'risidagi hisobotini ma'lumot uchun qabul qilish (5-ilova).

Ovoz berish natijalari:

4. "Rozi" - 100% ovoz, "Qarshi" - yo'q, "Betaraf" - yo'q.

Kun tartibidagi to'rtinchi masala bo'yicha Kuzatuv kengashi qaror qiladi:

4. "O'zavtosanoat" AJ yuridik boshqarmasining Kompaniya faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylik ta'minlanishi ahvoli to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin (5-ilova).

V. Kun tartibidagi beshinchi masala bo'yicha:

Kun tartibidagi **beshinchi masala** bo'yicha Ichki audit xizmati rahbari R.A. Kadirov tinglandi. U Kuzatuv kengashi a'zolarini 2023-yil 4-choragi yakuni bo'yicha Kompaniyaning ijro etuvchi organi tomonidan korporativ boshqaruv tamoyillariga rioya qilinishi, biznes-reja parametrlarining bajarilishi, aktivlarning holati, buxgalteriya hisoboti bilan tanishtirdi. Ichki audit xizmatining 2023-yil 4-choragi yakuni bo'yicha hisoboti ilova qilinadi (6-ilova).

Ichki audit xizmatining hisobotidagi quyidagi masalalar bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan:

- 2023-yilga Biznes-reja parametrlari sof foyda qismi bo'yicha 106% bajarilib, amalda sof foyda 34 851 mln. so'mni tashkil etgani;

- uzoq muddatli berilgan zaymlardan muddati o'tgan qarzdorliklar (tarmoq ichidagi korxonalar bo'yicha);

- kapital qo'yilmalar va tugallanmagan qurilishlar;
- uzoq muddatli debitor qarzdorliklar;
- moliyaviy ijaradan muddati o'tgan qarzdorliklar;
- uzoq muddatli investitsiyalar;
- sud qarorlariga asosan undiriladigan mablag'lar;
- qisqa muddatli berilgan qarzlardan muddati o'tgan qarzlari;
- tarmoq korxonalarning moliya-xo'jalik faoliyati.

Ovozga qo'yildi:

5.1. "O'zavtosanoat" AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi Audit qo'mitasining 2024-yil 30-apreldagi yig'ilish bayonini (7-ilova) ma'lumot uchun qabul qilish.

5.2. Ichki audit xizmatining 2023-yil 4-choragi yakuni bo'yicha hisobotini tasdiqlash (6-ilova).

5.3. "O'zavtosanoat" AJ Ijro organi "O'zavtosanoat" AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi Audit qo'mitasining 2024-yil 30-apreldagi yig'ilish bayonidagi qarorlarni bajarilishi bo'yicha "O'zavtosanoat" AJ Kuzatuv kengashiga ma'lumot kiritish.

Ovoz berish natijalari:

5.1. "Rozi" - 100% ovoz, "Qarshi" - yo'q, "Betaraf" - yo'q.

5.2. "Rozi" - 100% ovoz, "Qarshi" - yo'q, "Betaraf" - yo'q.

5.3. "Rozi" - 100% ovoz, "Qarshi" - yo'q, "Betaraf" - yo'q.

Kun tartibidagi beshinchi masala bo'yicha Kuzatuv kengashi qaror qiladi:

5.1. "O'zavtosanoat" AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi Audit qo'mitasining 2024-yil 30-apreldagi yig'ilish bayoni (7-ilova) ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5.2. Ichki audit xizmatining 2023-yil 4-choragi yakuni bo'yicha hisoboti tasdiqlansin (6-ilova).

5.3. "O'zavtosanoat" AJ Ijro organi "O'zavtosanoat" AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi Audit qo'mitasining 2024-yil 30-apreldagi yig'ilish bayonidagi qarorlarni bajarilishi bo'yicha "O'zavtosanoat" AJ Kuzatuv kengashiga ma'lumot kiritilsin.

VI. Kun tartibidagi oltinchi masala bo'yicha:

Kun tartibidagi **oltinchi masala** yuzasidan "O'zavtosanoat" AJ yuridik boshqarmasi boshlig'i S.I. Gafarov "O'zavtosanoat" AJ Kuzatuv kengashining 2023-yil 27-fevraldagi 3-2023-son bayoni (8-ilova) bilan "O'zavtosanoat" AJ xo'jalik faoliyati jarayonida ko'p uchraydigan kelgusida affillangan shaxslar bilan tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlar ro'yxati tasdiqlanganligi to'g'risida ma'lumot berdi. Ushbu chora kompaniya boshqaruviga sohani va qo'l ostidagi korxonalarni boshqarishda operativ qarorlar qabul qilish imkonini berdi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 88-moddasi sakkizinchi qismiga hamda affillangan bitimlar va yirik bitimlarni ko'rib chiqish bo'yicha "O'zavtosanoat" AJ komissiyasining 2024-yil 17-apreldagi

14-03-13-001-son yig'ilishi bayoniga (9-ilova) binoan, oldindan "O'zavtosanoat" AJ tomonidan kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida affillangan shaxslar bilan, Yagona aksiyadorning 2024-yil yakuni bo'yicha qaror qabul qilishigacha bo'lgan davrda, tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlar ro'yxatini 10-ilovaga muvofiq ma'qullash to'g'risida taklif kiritildi.

Ovozga qo'yildi:

6.1. "O'zavtosanoat" AJ Kuzatuv kengashining 2023-yil 27-fevraldagi 3-2023-son bayonini ma'lumot uchun qabul qilish (8-ilova).

6.2. Affillangan bitimlar va yirik bitimlarni ko'rib chiqish bo'yicha "O'zavtosanoat" AJ komissiyasining 2024-yil 17-apreldagi 14-03-13-001-sonli yig'ilishi bayonini ma'lumot uchun qabul qilish (9-ilova).

6.3. "O'zavtosanoat" AJ tomonidan kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida affillangan shaxslar bilan, Yagona aksiyadorning 2024-yil yakuni bo'yicha qaror qabul qilishigacha bo'lgan davrga tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlar ro'yxatini 10-ilovaga muvofiq tasdiqlash va ushbu bitimlarni ijro organ tomonidan amalga oshirishiga rozilik berish.

Ovoz berish natijalari:

6.1. "Rozi" - 100% ovoz, "Qarshi" - yo'q, "Betaraf" - yo'q.

6.2. "Rozi" - 100% ovoz, "Qarshi" - yo'q, "Betaraf" - yo'q.

6.3. "Rozi" - 100% ovoz, "Qarshi" - yo'q, "Betaraf" - yo'q.

Kun tartibidagi oltinchi masala bo'yicha Kuzatuv kengashi qaror qiladi:

6.1. "O'zavtosanoat" AJ Kuzatuv kengashining 2023-yil 27-fevraldagi 3-2023-son bayoni ma'lumot uchun qabul qilinsin (8-ilova).

6.2. Affillangan bitimlar va yirik bitimlarni ko'rib chiqish bo'yicha "O'zavtosanoat" AJ komissiyasining 2024-yil 17-apreldagi 14-03-13-001-son yig'ilishi bayonini ma'lumot uchun qabul qilinsin (9-ilova).

6.3. "O'zavtosanoat" AJ tomonidan kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida affillangan shaxslar bilan, Yagona aksiyadorning 2024-yil yakuni bo'yicha qaror qabul qilishigacha bo'lgan davrga tuzilishi mumkin bo'lgan bitimlar ro'yxati 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin va ushbu bitimlarni ijro organ tomonidan amalga oshirishga rozilik berilsin.

VII. Kun tartibidagi yettinchi masala bo'yicha:

Kun tartibidagi **yettinchi masala** bo'yicha Boshqaruv raisining kadr va rejim bo'yicha o'rinbosari A.R.Bikkulov tinglandi.

O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining:

- 59-moddasida jamiyat aksiyadorlari umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash) va rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

- 79-moddasida jamiyat direktorining, jamiyat boshqaruvi a'zolarining huquq va majburiyatlari tegishincha ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlarida, jamiyat ustavida hamda ularning har biri jamiyat bilan uch yil muddatga tuzadigan shartnomada

belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinishi belgilanganligi ma'lum qilindi.

“O‘zavtosanoat” AJ Yagona aksiyadori – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 30-iyundagi 8-2022-son qarori (11-ilova) bilan “O‘zavtosanoat” AJ Mahalliyashtirish, kooperatsiya aloqalarini sanoatda kengaytirish va axborot texnologiyalari masalalari bo'yicha boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari - A.V.Rafiqov, “O‘zavtosanoat” AJ Transformatsiya va moliya masalalari bo'yicha boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari - A.K.Shukurov hamda “O‘zavtosanoat” AJ Boshqaruv raisining o'rinbosari F.R.Turayevlar 3 yil muddatgacha, ya'ni Yagona aksiyador 2024-yil yakuni bo'yicha qaror qabul qilingungacha bo'lgan davrga tayinlangan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik Islohotlar Agentligining (bundan buyon – SIA) 2023-yil 24-martdagi 2-son qarori (12-ilova) bilan “O‘zavtosanoat” AJ boshqaruvi raisi etib U.U.Rozukulov hamda 2023-yil 5-maydagi 3-son qarori (13-ilova) bilan “O‘zavtosanoat” AJ Boshqaruvi raisining o'rinbosari R.A.Bikkulov 3 yil muddatga tayinlangan.

Shu bilan birga, SIAning 2023-yil 27-iyundagi 13/19-15-son qarorida (14-ilova) “O‘zavtosanoat” AJ rahbari va a'zolari bilan mehnat shartnomasi (shu jumladan, qo'shimcha shartnoma) o'zgartirishsiz qoldirilgan.

“O‘zavtosanoat” AJ Yagona aksiyadori – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 18-martdagi 2-2024-sonli qarori bilan “O‘zavtosanoat” AJ Boshqaruv raisining Innovatsiya va investitsiyalar bo'yicha o'rinbosari lavozimiga D.A.Xidoyatov hamda Sotuvni rivojlantirish va marketing bo'yicha o'rinbosari lavozimiga A.A.Saxapov tayinlandi (15-ilova).

Yuqoridagilarni inobatga olib, “O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi Tayinlash va rag'batlantirish qo'mitasining 2024-yil 30-apreldagi yig'ilishining bayonida (16-ilova):

- “O‘zavtosanoat” AJ Yagona aksiyadoriga uning “O‘zavtosanoat” AJ boshqaruv a'zolari vakolatlari muddatlariga oid qarorlarini o'zgartirishsiz qoldirishni taklif qilish;

- “O‘zavtosanoat” AJ Boshqaruv raisi U.U.Rozukulovga boshqaruv a'zolari A.V.Rafiqov, A.K.Shukurov, R.A.Bikkulov, F.R.Turayev, D.A.Xidoyatov va A.A.Saxapov bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga qo'shimcha bitimlarni imzolash huquqini berish tavsiya etilgan.

Ovozga qo'yildi:

7.1. Quyidagilarni ma'lumot uchun qabul qilish:

- “O‘zavtosanoat” AJ Yagona aksiyadori - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 30-iyundagi 8-2022-sonli qarori (11-ilova);

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik Islohotlar Agentligining 2023-yil 24-martdagi 2-son qarori (12-ilova), 2023-yil 5-maydagi 3-son qarori (13-ilova) va 2023-yil 27-iyundagi 13/19-15-sonli qarori (14-ilova);

- “O‘zavtosanoat” AJ Yagona aksiyadori - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 18-martdagi 2-2024-son qarori (15-ilova);

- “O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi Tayinlash va rag'batlantirish qo'mitasining 2024-yil 30-apreldagi yig'ilishining bayoni (16-ilova).

7.2. “O‘zavtosanoat” AJ Yagona aksiyadorining “O‘zavtosanoat” AJ boshqaruv a'zolari vakolatlari muddatlariga oid qarorlarini o'zgartirishsiz qoldirishni tavsiya qilish.

7.3. “O‘zavtosanoat” AJ Boshqaruv raisi U.U.Rozukulovga boshqaruv a‘zolari A.V.Rafiqov, A.K.Shukurov, R.A.Bikkulov, F.R.Turayev, D.A.Xidoyatov va A.A.Saxapov bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga qo‘shimcha bitimlarni imzolash huquqini berish.

Ovoz berish natijalari:

7.1. “Rozi” - 100% ovoz, “Qarshi” - yo‘q, “Betaraf” - yo‘q.

7.2. “Rozi” - 100% ovoz, “Qarshi” - yo‘q, “Betaraf” - yo‘q.

7.3. “Rozi” - 100% ovoz, “Qarshi” - yo‘q, “Betaraf” - yo‘q.

Kun tartibidagi yettinchi masala bo‘yicha Kuzatuv kengashi qaror qiladi:

7.1. Quyidagilar ma‘lumot uchun qabul qilinsin:

- “O‘zavtosanoat” AJ Yagona aksiyadori - O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 30-iyundagi 8-2022-sonli qarori (11-ilova);

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik Islohotlar Agentligining 2023-yil 24-martdagi 2-son qarori (12-ilova), 2023-yil 5-maydagi 3-son qarori (13-ilova) va 2023-yil 27-iyundagi 13/19-15-sonli qarori (14-ilova);

- “O‘zavtosanoat” AJ Yagona aksiyadori - O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 18-martdagi 2-2024-son qarori (15-ilova);

- “O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi Tayinlash va rag‘batlantirish qo‘mitasining 2024-yil 30-apreldagi yig‘ilishining bayoni (16-ilova).

7.2. “O‘zavtosanoat” AJ Yagona aksiyadorining “O‘zavtosanoat” AJ boshqaruv a‘zolari vakolatlari muddatlariga oid qarorlarini o‘zgartirishsiz qoldirishni tavsiya qilinsin.

7.3. “O‘zavtosanoat” AJ Boshqaruv raisi U.U.Rozukulovga boshqaruv a‘zolari A.V.Rafiqov, A.K.Shukurov, R.A.Bikkulov, F.R.Turayev, D.A.Xidoyatov va A.A.Saxapov bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga qo‘shimcha bitimlarni imzolash huquqi berilsin.

VIII. Kun tartibidagi sakkizinchi masala bo‘yicha:

Kun tartibidagi sakkizinchi masala yuzasidan “O‘zavtosanoat” AJ boshqaruv raisi birinchi o‘rinbosari A.V.Rafiqovga so‘z berildi va u quyidagilar haqida ma‘lumot berdi.

“O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashi yig‘ilishining 2023-yil 30-noyabrdagi 17-2023-son bayoniga (17-ilova) asosan “O‘zavtosanoat” AJning 2024-yil uchun, shu jumladan, hisobot yilining I, II, III va IV choraklik reja-jadvallarini, shuningdek import qilish rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro‘yxatlarini (2023-yil 30-noyabrdagi 17-2023-son bayoni ilovasiga muvofiq) xaridlarning maqsadga muvofiqligi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqib, ma‘qullangani haqida ma‘lumot berildi.

“O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashi yig‘ilishining 2023-yil 30-noyabrdagi 17-2023-son bayonni ilovasidagi ro‘yxatga 2024-yil uchun II choraklik reja-jadvaliga quyidagi “O‘zavtosanoat” AJning tomonidan xarajatlar QQS bilan birga qo‘shimcha xaridlar qilish uchun kiritilishi:

- “O‘zavtosanoat” AJning ehtiyoji uchun 15 turdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilish bo‘yicha – 10,97 mlrd. so‘m undan:

1. "O'zavtosanoat" AJ va uning tarkibidagi 6 ta korxonani 2023-yil uchun xaridini auditdan o'tkazish xizmati – 2,0 mlrd. So'm;
2. "O'zavtosanoat" AJni MXHS bo'yicha audit xizmati (2 yil uchun) – 6,6 mlrd. so'm;
3. "O'zavtosanoat" AJ binosini tozalash xizmati 1 yil uchun – 900 mln. so'm;
4. "O'zavtosanoat" AJning tizim korxonalari bilan topshiriq bo'yicha xarajatlar 1 yil uchun – 852 mln. so'm;
5. "O'zavtosanoat" AJning ehtiyoji uchun 11 turdagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) – 62 mln. so'm.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O'zavtosanoat" AJ Kuzatuv kengashi yig'ilishining 2023-yil 30-noyabrdagi 17-2023-son bayoni ilovasidagi ro'yxatga tegishli o'zgartirishlarni va qo'shimchalarni kiritish (mazkur bayonga 18-ilovaga muvofiq) va yangilangan ro'yxatni ma'qullash taklif etilmoqda.

Ovozga qo'yildi:

8.1. "O'zavtosanoat" AJ Kuzatuv kengashi yig'ilishining 2023-yil 30-noyabrdagi 17-2023-sonli bayoni bo'yicha ilova qilingan ro'yxatni ma'lumot uchun qabul qilinishi (17-ilova).

8.2. "O'zavtosanoat" AJ Kuzatuv kengashi yig'ilishining 2023-yil 30-noyabrdagi 17-2023-sonli bayonining ilovasidagi ro'yxatga 2024-yilning II choragi uchun qo'shimcha xaridlar kiritilishi mazkur bayonning 18-ilovasiga muvofiq tasdiqlash.

Ovoz berish natijalari:

8.1. "Rozi" – 100% ovoz, "Qarshi" – yo'q, "Betaraf" – yo'q.

8.2. "Rozi" – 100% ovoz, "Qarshi" – yo'q, "Betaraf" – yo'q.

Kun tartibidagi sakkizinchi masala bo'yicha Kuzatuv kengashi qaror qiladi:

8.1. "O'zavtosanoat" AJ Kuzatuv kengashi yig'ilishining 2023-yil 30-noyabrdagi 22-2022-sonli bayoni bo'yicha ilova qilingan ro'yxat ma'lumot uchun qabul qilinsin (17-ilova).

8.2. "O'zavtosanoat" AJ Kuzatuv kengashi yig'ilishining 2023-yil 30-noyabrdagi 22-2022-sonli bayonining ilovasidagi ro'yxatga 2024-yilning II choragi uchun qo'shimcha xaridlar kiritilishi mazkur bayonning 18-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

IX. Kun tartibidagi to'qqizinchi masala bo'yicha:

Kun tartibidagi to'qqizinchi masala yuzasidan "O'zavtosanoat" AJ boshqaruv raisining o'rinbosari R.A.Bikkulova so'z berildi va u quyidagilar haqida ma'lumot berdi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining "O'zbekistonda samarali, hisob beruvchi va shaffof boshqaruv institutlari orqali korrupsiyaga qarshi kurashish" loyihasi bilan birgalikda, "O'zavtosanoat" AJda Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo'yicha ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiqlik sertifikatini olish shuningdek, joriy qilingan tizimning standart talablariga muvofiqlashtirish maqsadida, quyidagi Komplayens nazoratiga oid hujjatlar loyihalari ishlab chiqildi:

- "O'zavtosanoat" AJning Firibgarlikka qarshi kurashish siyosati" (19-ilova);

- “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish siyosati” (20-ilova);

- “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish bo‘yicha maxsus komissiyasi to‘g‘risidagi nizom” (21-ilova);

- “O‘zavtosanoat” AJning “Komplayens-nazorat qo‘llanmasi” (Handbook) (22-ilova);

- “O‘zavtosanoat” AJ Sanksiyalar va eksport nazorati siyosati” (27-ilova)

Bundan tashqari, “O‘zavtosanoat” AJning 2022-yil 29-dekabrda 27-174-sonli Buyrug‘i (23-ilova) bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qaroriga muvofiq, hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi bo‘yicha ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga asosida ishlab chiqilgan “O‘zavtosanoat” AJ Xodimlarining odob-axloq qoidalari” (24-ilova) tasdiqlangan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, “O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasining 2024-yil 10-maydagi yig‘ilishining bayonida (25-ilova) quyidagilarni tavsiya qilgan:

1. “Firibgarlikka qarshi kurashish siyosati”ni, “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish siyosati”ni, “Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish bo‘yicha maxsus komissiyasi to‘g‘risidagi nizom”ni, “O‘zavtosanoat” AJ Xodimlarining odob-axloq qoidalari”ni tasdiqlash;

2. “Komplayens-nazorat qo‘llanmasi” (Handbook)ni ma’qullash;

3. “O‘zavtosanoat” AJ Ijro organiga quyidagi topshiriqlarni berish:

- tasdiqlanguniga qadar amal qilgan “O‘zavtosanoat” AJ Xodimlarining odob-axloq qoidalari”ni o‘z kuchini yo‘qotishi bo‘yicha choralar ko‘rishni;

- mazkur bayon bilan tasdiqlangan komplayens nazoratiga oid hujjatlarni tanishish bo‘yicha ichki kommunikatsiyalarni amalga oshirishni hamda “O‘zavtosanoat” AJning tegishli xodimlari uchun trening o‘tkazilishni ta’minlashni.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2023-yil 24-martdagi “Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-101-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat aktivlarini boshqarish sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da Davlat ishtirokidagi korxonalarda zamonaviy korporativ boshqaruv tizimini joriy qilish, ularning faoliyat samaradorligini oshirish va dividend siyosatini takomillashtirish belgilangan.

Bunda, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan jalb etilgan ekspertlar bilan hamkorlikda ishlab chiqiladigan Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun yangilangan Korporativ boshqaruv qoidalari va Axloq kodeksi korxonalar boshqaruv organlari tomonidan tasdiqlanishi ko‘rsatilgan.

Shu bois, Korporativ boshqaruv qoidalarini tasdiqlash taklif qilinmoqda (26-ilova).

“O‘zavtosanoat” AJ Ustavining 11.10.27-bandiga binoan “O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashning vakolatiga Kompaniya Ustavining 10.5.-bandida Kompaniya

Yagona aksiyadori vakolatiga kiritilmagan (shu jumladan, Kompaniya ijro organi to'g'risidagi nizomni, Kompaniya ijro organini rag'batlantirish to'g'risidagi nizomni, fondlar to'g'risidagi nizomlar) hamda Kompaniya Ijroiya organini vakolatida bo'lmagan boshqaruv hujjatlarni (nizomlarni) tasdiqlash kiritilgan.

Ovozga qo'yildi:

9.1. Quyidagilarni ma'lumot uchun qabul qilish:

- "O'zavtosanoat" AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasining 2024-yil 10-maydagi yig'ilishining bayoni (25-ilova).

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2023-yil 24-martdagi "Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-101-son qarori.

9.2. "O'zavtosanoat" AJning quyidagi ichki hujjatlarini tasdiqlash:

9.2.1. "Firibgarlikka qarshi kurashish siyosati" (19-ilova),

9.2.2. "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish siyosati" (20-ilova);

9.2.3. "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bo'yicha maxsus komissiyasi to'g'risidagi nizom" (21-ilova);

9.2.4. "O'zavtosanoat" AJ Sanksiyalar va eksport nazorati siyosati" (27-ilova)

9.2.5. "O'zavtosanoat" AJ Xodimlarining odob-axloq qoidalari" (24-ilova);

9.2.6. Korporativ boshqaruv qoidalari (26-ilova)

9.3. "Komplayens-nazorat qo'llanmasi" (Handbook)ni ma'qullash (22-ilova).

9.4. "O'zavtosanoat" AJ Ijro organi:

- tasdiqlanguniga qadar amal qilgan "O'zavtosanoat" AJ Xodimlarining odob-axloq qoidalari"ni o'z kuchini yo'qotishi bo'yicha choralar ko'rishni;

- mazkur bayon bilan tasdiqlangan komplayens nazoratiga oid hujjatlarni tanishish bo'yicha ichki kommunikatsiyalarni amalga oshirishni hamda "O'zavtosanoat" AJning tegishli xodimlari uchun trening o'tkazilishni ta'minlashni.

Ovoz berish natijalari:

9.1. "Rozi" – 100% ovoz, "Qarshi" – yo'q, "Betaraf" – yo'q.

9.2. "Rozi" – 100% ovoz, "Qarshi" – yo'q, "Betaraf" – yo'q.

9.3. "Rozi" – 100% ovoz, "Qarshi" – yo'q, "Betaraf" – yo'q.

9.4. "Rozi" – 100% ovoz, "Qarshi" – yo'q, "Betaraf" – yo'q.

Kun tartibidagi to'qqizinchi masala bo'yicha Kuzatuv kengashi qaror qiladi:

9.1. Quyidagilar ma'lumot uchun qabul qilinsin:

- "O'zavtosanoat" AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasining 2024-yil 10-maydagi yig'ilishining bayoni (25-ilova)

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2023-yil 24-martdagi "Davlat aktivlarini boshqarish agentligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-101-son qarori.

9.2. "O'zavtosanoat" AJning quyidagi ichki hujjatlari tasdiqlansin:

9.2.1. "Firibgarlikka qarshi kurashish siyosati" (19-ilova),

9.2.2. "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish siyosati" (20-ilova);

9.2.3. "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bo'yicha maxsus komissiyasi to'g'risidagi nizom" (21-ilova);

9.2.4. "O'zavtosanoat" AJ Sanksiyalar va eksport nazorati siyosati" (27-ilova)

9.2.5. "O'zavtosanoat" AJ Xodimlarining odob-axloq qoidalari" (24-ilova);

9.2.6. Korporativ boshqaruv qoidalari (26-ilova)

9.3. "Komplayens-nazorat qo'llanmasi" (Handbook)ni ma'qullansin (22-ilova).

9.4. "O'zavtosanoat" AJ Ijro organi:

- tasdiqlanguniga qadar amal qilgan "O'zavtosanoat" AJ Xodimlarining odob-axloq qoidalari"ni o'z kuchini yo'qotishi bo'yicha choralar ko'rsin;

- mazkur bayon bilan tasdiqlangan oid hujjatlarni tanishish bo'yicha ichki kommunikatsiyalarni amalga oshirsin hamda "O'zavtosanoat" AJning tegishli xodimlari uchun trening o'tkazilishni ta'minlasin.

X. Kun tartibidagi o'ninchi masala bo'yicha:

Kun tartibidagi o'ninchi masala yuzasidan "O'zavtosanoat" AJ boshqaruv raisining o'rinbosari R.A.Bikkulova so'z berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-son qarori bilan:

- 2022-yil 1-iyuldan boshlab reyting baholash tizimi barcha davlat tashkilotlari faoliyatiga joriy etilishi belgilangan;

- har yili oldingi yilning 1-yanvaridan baholanish o'tkazilayotgan yilning 1-yanvariga qadar bo'lgan davr reyting baholash tizimi bilan qamrab olinishi belgilangan;

- "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tartibi to'g'risida" nizomi (bundan buyon – Nizom) tasdiqlangan.

Nizomning 6-bandida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi 0 ball dan 100 ballgacha reytingda baholanib, faoliyat samaradorligi "yaxshi", "qoniqarli" va "qoniqarsiz" toifalarga ajratilishi ko'rsatilgan.

Reyting baholashni mustaqil amalga oshiruvchi ekspertlar guruhi tomonidan "O'zavtosanoat" AJda 2023-yil yakuni bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi "yaxshi" toifaga kirishi ta'kidlangan (*ma'lumot ilova qilinmoqda*).

Shu bilan birga, “O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashi muhokamasiga 2023-yilda “O‘zavtosanoat” AJda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid olib borilgan ishlar haqidagi hisobot (26-ilova) kiritilmoqda.

“O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasining tavsiyalari 2024-yil 10-maydagi yig‘ilishining bayonida (25-ilova) aks etilgan.

Ovozga qo‘yildi:

10.1. Quyidagilarni ma’lumot uchun qabul qilish:

- “O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasining 2024-yil 10-maydagi yig‘ilishining bayoni (25-ilova);

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son qarori.

- Reyting baholashni mustaqil amalga oshiruvchi ekspertlar guruhi tomonidan “O‘zavtosanoat” AJda 2023-yil yakuni bo‘yicha korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi “yaxshi” toifaga kiritilganligi.

10.2. 2023-yilda “O‘zavtosanoat” AJda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid olib borilgan ishlar haqidagi hisobotini (28-ilova) ma’lumot uchun qabul qilish va ma’qullash.

Ovoz berish natijalari:

10.1. “Rozi” – 100% ovoz, “Qarshi” – yo‘q, “Betaraf” – yo‘q.

10.2. “Rozi” – 100% ovoz, “Qarshi” – yo‘q, “Betaraf” – yo‘q.

Kun tartibidagi o‘ninchi masala bo‘yicha Kuzatuv kengashi qaror qiladi:

10.1. Quyidagilar ma’lumot uchun qabul qilinsin:

- “O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashi huzuridagi Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasining 2024-yil 10-maydagi yig‘ilishining bayoni (25-ilova);

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son qarori.

- Reyting baholashni mustaqil amalga oshiruvchi ekspertlar guruhi tomonidan “O‘zavtosanoat” AJda 2023-yil yakuni bo‘yicha korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi “yaxshi” toifaga kiritilganligi.

10.2. 2023-yilda “O‘zavtosanoat” AJda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid olib borilgan ishlar haqidagi hisobotini (28-ilova) ma’lumot uchun qabul qilish va ma’qullash.

**“O‘zavtosanoat” AJ Kuzatuv kengashining 2024-yil “14” iyun dagi
7 -2024-son bayoniga Kuzatuv kengashi a‘zolarining imzolari**

Kuzatuv kengashi raisi



A.R.Jumanazarov

Kuzatuv kengashi a‘zolari



F.K.Raxmatov



Z.Z.Saidov

M.B.Atadjanov



Bo Inge Andersson



Sharik Xan



Andreas Edinger